

**“DISLEKSIYA VA DISGRAFIYA BO‘LGAN BOLALARDA  
INDIVIDUAL TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH.”**

*Mirsultonova Nozimaxon Jahongir qizi*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti*

*Special Pedagogy fakulteti talabasi*

*[Mirsultonovanozima2@gmail.com](mailto:Mirsultonovanozima2@gmail.com)*

*+998 95 206 04 24*

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur ishda disleksiya va disgrafiya kabi o‘quv faoliyatidagi buzilishlarga ega bo‘lgan bolalar uchun individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqishning ahamiyati, tamoyillari va metodik yondashuvlari yoritilgan. Ushbu buzilishlarga ega bolalar an’anaviy ta’lim tizimida to‘liq o‘zlashtira olmasliklari sababli, ular uchun alohida yondashuv va moslashtirilgan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Ishda bolaning psixologik-pedagogik holatini baholash, individual maqsadlar qo‘yish, o‘quv materiallarini moslashtirish, logopedik va maxsus pedagogik yordam ko‘rsatish kabi muhim bosqichlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, individual ta’lim dasturini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi, logoped, psixolog va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikning o‘rni alohida ta’kidlangan. Ushbu ish maxsus ta’lim, logopediya va defektologiya yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, amaliyotchi pedagoglar va ota-onalar uchun metodik qo‘llanma vazifasini bajaradi.*

**Kalit so‘zlar:** *disleksiya, disgrafiya, o‘quv faoliyatidagi buzilishlar, individual ta’lim dasturi, psixologik-pedagogik baholash, logopedik yordam, maxsus pedagogika, ta’limni moslashtirish, defektologiya, ota-ona hamkorligi.*

**АННОТАЦИЯ:** В данной работе освещается значение, принципы и методические подходы к разработке индивидуальных образовательных программ для детей с нарушениями учебной деятельности, такими как дислексия и дисграфия. Поскольку дети с такими нарушениями не могут в

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

---

полной мере усваивать учебный материал в рамках традиционной системы образования, возникает необходимость в создании индивидуального подхода и адаптированных образовательных стратегий. В работе рассмотрены такие важные этапы, как оценка психолого-педагогического состояния ребенка, постановка индивидуальных целей, адаптация учебного материала, логопедическая и специальная педагогическая помощь. Отдельно подчеркивается значение сотрудничества между учителем, логопедом, психологом и родителями для эффективной организации индивидуальной образовательной программы. Данная работа может служить методическим пособием для студентов, обучающихся по направлениям специального образования, логопедии и дефектологии, а также для практикующих педагогов и родителей.

**Ключевые слова:** дислексия, дисграфия, нарушения учебной деятельности, индивидуальная образовательная программа, психолого-педагогическая диагностика, логопедическая помощь, специальная педагогика, адаптация обучения, дефектология, сотрудничество с родителями.

**ANNOTATION:** This work highlights the importance, principles, and methodological approaches to developing individualized education programs for children with learning disorders such as dyslexia and dysgraphia. Since children with these disorders often cannot fully grasp the material within the traditional education system, it is necessary to create a personalized approach and develop adapted educational strategies for them. The study addresses key stages such as assessing the child's psychological and pedagogical condition, setting individual goals, adapting learning materials, and providing speech therapy and special pedagogical support. The role of collaboration between teachers, speech therapists, psychologists, and parents is especially emphasized for the effective implementation of an individualized education plan. This work serves as a methodological guide for students in the fields of special education, speech therapy, and defectology, as well

*as for practicing educators and parents.*

**Keywords :** dyslexia, dysgraphia, learning disorders, individual educational program, psycho-pedagogical assessment, speech therapy support, special pedagogy, curriculum adaptation, defectology, parental cooperation.

### **Kirish**

Ta'lim tizimida har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, disleksiya va disgrafiya kabi o'quv faoliyatidagi buzilishlarga ega bo'lgan bolalar an'anaviy dars jarayonida bilimlarni to'liq o'zlashtira olmaydilar. Shu sababli ular uchun maxsus yondashuv, psixologik-pedagogik yordam va individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu buzilishlar bolaning intellektual rivojlanishi pastligi bilan bog'liq emas, balki markaziy asab tizimidagi funksional xususiyatlar bilan izohlanadi. Ushbu buzilishlar bolaning umumiyligi intellektual rivojlanishidan mustaqil bo'lib, o'z vaqtida tashxis qo'yilmasa, keyinchalik ta'lim jarayoniga va ijtimoiy moslashuviga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Boshqa davlatlarda tashkil etilgan individual ta'lim dasturlari**

#### **AQSh**

- **Orton-Gillingham yondashuvi** — multisensorli fonemik uslub bo'lib, o'qish, yozish va imlo bo'yicha reabilitatsiya uchun qo'llaniladi. Ta'limda audiovizual, kinestetik va tutib o'rGANISH uslublarini uyg'unlashtiradi.

- **Wilson Reading System** — Cedars International Academy kabi joylarda qo'llaniladi. Bu dasturning asosiy komponentlari: fonika, dekodlash, so'z va gap o'qish, lug'at, imlo, o'qish aniqligi, tushunish.

- **Maxsus ta'lim maktablari** — masalan, Brehm Preparatory School (Illinois) va Trident Academy (Janubiy Karolina) kabi maktablar disleksiya hamda boshqa o'quv buzilishlariga ega bolalarga individual dasturlar asosida ta'lim beradi.

#### **Malayziya**

- **SPTBiD (Sariah Program & Teknik Bimbingan Intensif Disleksia)** dasturi 1990-yillarda ishlab chiqilgan bo'lib, multisensorli yondashuv asosida

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

tuzilgan. O'quvchilarni qabul darajasiga ko'ra guruhlab, o'qish, yozuv va imlo ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

Nodavlat tashkilotlar va global miqyosdagi yondashuvlar

- **IMSLEC (International Multisensory Structured Language Education Council)** — multisensorli tuzilgan o'qituvchilar va terapevtlar tayyorlash bo'yicha xalqaro akkreditatsiya tashkiloti. Bu yondashuvda fonemika, bo'g'in va morfologiya, sintaksis va semantika, to'g'ridan-to'g'ri ta'lif, diagnostik o'qitish asosiy tamoyillardir
- **Instrumental Enrichment Program (Feuerstein)** — Isroilda ishlab chiqilgan bu dastur qobiliyatlarni o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, o'qishga qobiliyatsizlik sababi sifatidagi e'tibor va diqqatni shakllantirishga qaratilgan metodologiya bo'lib, 59 dan ortiq davlatda qo'llanilmoqda.
- **Global tarmoqdagi tashkilotlar:** Singapur, Hindiston, Braziliya, Keniya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Singapurda disleksiya oид markazlar va qo'llab-quvvatlash tashkilotlari mavjud.

### **Disleksiya va disgrafiyaning mohiyati va turlari**

**Disleksiya** – o'qish jarayonidagi buzilish bo'lib, bola harflarni so'zga birlashtirish, tovushlarni farqlash, matnni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi.

**Fonematik disleksiya** - bola tovushlarni farqlashda qiynaladi.

**1. Optik disleksiya** - harflarning shaklini ko'rishda va eslab qolishda qiyinchilik bo'ladi.

**2. Mnemik disleksiya** - bola harflarni eslab qolishda qiynaladi. Yangi o'rganilgan harflarni tez unutadi, o'qishda ularni tanimaydi.

**3. Semantik disleksiya** - bola so'zlarni o'qiy oladi, lekin gap yoki matnning umumiy ma'nosini tushunmaydi.

**4. Agrammatik disleksiya** - grammatik shakllarni noto'g'ri o'qish kuzatiladi. Masalan, birlik-ko'plik, zamon, kelishiklarni adashtiradi.

**5. Tovush-analitik (analitik-sintetik) disleksiya** - bola tovushlarni bo‘g‘inlarga ajrata olmaydi, sintez qilolmaydi. Masalan, “bola” so‘zini bo‘g‘inlarga bo‘lib o‘qishda qiynaladi.

**Disografiya** - yozuv jarayonidagi buzilish bo‘lib, so‘zlarni noto‘g‘ri yozish, grammatik xatolar, tovush va harflarni chalkashtirish kabi muammolar bilan tavsiflanadi. Ushbu buzilishlar bolaning intellektual darajasi pastligi bilan emas, balki neyropsixologik rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar bilan bog‘liqdir.

**1. Fonematik disografiya** - tovushlarni noto‘g‘ri eshitish yoki farqlay olmaslik natijasida yuzaga keladi.

**2. Optik disografiya** - harflarning shaklini ko‘rishda va yozishda chalkashlik kuzatiladi.

**3. Agrammatik disografiya** - grammatik qoidalarga amal qilmaslikda namoyon bo‘ladi. Masalan, birlik va ko‘plikni, zamonlarni yoki kelishik qo‘shimchalarini noto‘g‘ri yozadi: “kitoblar” o‘rniga “kitob”, “boradi” o‘rniga “borar”.

**4. Mnemik disografiya** - bola harflarni eslab qolishda qiynaladi.

**5. Tovush-analitik (analitik-sintetik) disografiya** - tovush va bo‘g‘inlarni tahlil va sintez qilishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq.

**Disleksiya va disgrafigyaning kelib chiqish sabablari:** Fonematik eshitishning rivojlanmaganligi; markaziy asab tizimi faoliyatidagi funksional o‘ziga xosliklar; xotira va diqqatning past darajada shakllanganligi; genetik omillar va irsiy moyillik; erta yoshda nutq rivojlanishidagi sustlik.

**Disleksiya va disografiya bo‘lgan bolalar uchun individual ta’lim dasturining asosiy maqsadi:** 1. bolaning o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish; 2. o‘qish va yozishdagi qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich yengib o‘tish; 3. logopedik va defektologik yordamni samarali tashkil etish; 4. ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashdir.

**Individual ta’lim dasturining zarurati.** Disleksiya va disografiya bolalarda bilim olish jarayonida sezilarli to‘silalar tug‘diradi. Oddiy dars metodlari ularning

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

qiychiliklarini bartaraf eta olmaydi. Shu bois, **individual ta'lim dasturi (ITD)** ishlab chiqish zarur. **ITD quyidagilarga xizmat qiladi :**

1. bolaning shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish;
2. o'quv materiallarini moslashtirish;
3. o'qituvchi, logoped va psixolog faoliyatini uyg'unlashtirish;
4. bolaning ta'lim olishdagi muvaffaqiyatini bosqichma-bosqich oshirish.

**Individual ta'lim dasturini ishlab chiqish tamoyillari :**

1. **Individual yondashuv** – har bir bolaning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olish.

2. **Bosqichlilik** – dastur oddiy mashqlardan murakkablariga qarab tuzilishi.

3. **Moslashtirish** – o'quv materiallari bolaning qabul qilish darajasiga mos bo'lishi.

4. **Hamkorlik** – o'qituvchi, logoped, psixolog va ota-onalar o'rtasida doimiy aloqani yo'lga qo'yish.

**Individual ta'lim dasturini ishlab chiqish bosqichlari**

1. **Tashxislash** – bolaning psixologik-pedagogik va logopedik holatini aniqlash.

2. **Maqsad qo'yish** – bolaning individual rivojlanishiga mos ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni belgilash.

3. **O'quv materiallarini moslashtirish** – matnlar, mashqlar va topshiriqlarni soddalashtirish, ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

4. **Logopedik va defektologik mashg'ulotlar** – tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, yozuv va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.

5. **Uy sharoitida qo'llab-quvvatlash** – ota-onalarning faol ishtiroki va mashqlarni davom ettirishi.

6. **Monitoring va baholash** – natijalarni kuzatib borish, dasturga o'zgartirishlar kiritish.

**Metodik yondashuvlar :**

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

1. **Logopedik mashg‘ulotlar:** tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, fonematik eshitishni rivojlantirish.
2. **O‘yin texnologiyalari:** didaktik o‘yinlar yordamida o‘qish va yozishni qiziqarli qilish.
3. **Ko‘rgazmali materiallar:** kartochkalar, rasmlar, sxemalar orqali ta’limni yengillashtirish.
4. **Texnologik vositalar:** maxsus kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, audio va video materiallardan foydalanish.
5. **Bosqichma-bosqich mashqlar:** matnni bo‘g‘inlarga ajratish, qisqa gaplardan foydalanish, yozuvni asta-sekin murakkablashtirish..

### AQSh

- **Orton-Gillingham yondashuvi** — multisensorli fonemik uslub bo‘lib, o‘qish, yozish va imlo bo‘yicha reabilitatsiya uchun qo‘llaniladi. Ta’limda audiovizual, kinestetik va tutib o‘rganish uslublarini uyg‘unlashtiradi.
- **Wilson Reading System** — Cedars International Academy kabi joylarda qo‘llaniladi. Bu dasturning asosiy komponentlari: fonika, dekodlash, so‘z va gap o‘qish, lug‘at, imlo, o‘qish aniqligi, tushunish.
- **Maxsus ta’lim maktablari** — masalan, Brehm Preparatory School (Illinois) va Trident Academy (Janubiy Karolina) kabi maktablar disleksiya hamda boshqa o‘quv buzilishlariga ega bolalarga individual dasturlar asosida ta’lim beradi.

### Malayziya

- **SPTBiD (Sariah Program & Teknik Bimbingan Intensif Disleksia)** dasturi 1990-yillarda ishlab chiqilgan bo‘lib, multisensorli yondashuv asosida tuzilgan. O‘quvchilarni qabul darajasiga ko‘ra guruhlab, o‘qish, yozuv va imlo ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

### Nodavlat tashkilotlar va global miqyosdagi yondashuvlar

- **IMSLEC (International Multisensory Structured Language Education Council)** — multisensorli tuzilgan o‘qituvchilar va terapevtlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro akkreditatsiya tashkiloti. Bu yondashuvda fonemika,

bo‘g‘in va morfologiya, sintaksis va semantika, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim, diagnostik o‘qitish asosiy tamoyillardir

- **Instrumental Enrichment Program (Feuerstein)** — Isroilda ishlab chiqilgan bu dastur qobiliyatlarni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lib, o‘qishga qobiliyatsizlik sababi sifatidagi e’tibor va diqqatni shakllantirishga qaratilgan metodologiya bo‘lib, 59 dan ortiq davlatda qo‘llanilmoqda.

- **Global tarmoqdagi tashkilotlar:** Singapur, Hindiston, Braziliya, Keniya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Singapurda disleksiyaga oid markazlar va qo‘llab-quvvatlash tashkilotlari mavjud.

**Tavfsiyalar va o‘yinlar :** Individual ta’lim dasturlarida o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab, mashg‘ulotlar o‘yin va mashqlar orqali tashkil etilganda ularning samaradorligi yanada oshadi. Quyida ba’zi amaliy mashqlar va o‘yinlar keltiriladi.

### **1. “Harflarni top” o‘yini**

**Mazmuni:** Bolaga turli ranglarda yozilgan harflar ko‘rsatiladi. O‘qituvchi tovushni aytadi, bola esa mos harfni topadi.

**Natijasi:** Tovush-harf bog‘lanishini anglash mustahkamlanadi, diqqat rivojlanadi.

### **2. “Bo‘g‘inlardan so‘z tuz” mashqi**

**Mazmuni:** Kartochkalarda yozilgan bo‘g‘inlardan yangi so‘zlar tuziladi.

**Natijasi:** So‘z boyligi kengayadi, bo‘g‘inlarni chalkashtirish kamayadi.

### **3. “So‘zdan so‘z top” o‘yini**

**Mazmuni:** Berilgan so‘zdan yangi so‘zlar hosil qilinadi (masalan, “kitob” so‘zidan – “to”, “bot”).

**Natijasi:** So‘z tarkibini anglash osonlashadi, yozuvdagi xatolar kamayadi.

### **4.Grafomotor mashqlar**

**Mazmuni:** Spirallar, chiziqlar, geometrik shakllar chizish orqali qo‘l harakatlari mashq qilinadi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Natijasi:** Qo‘l motorikasi rivojlanadi, yozuv jarayoniga tayyorgarlik kuchayadi.

### **5. “So‘z – rasm – harf” metodikasi**

**Mazmuni:** So‘z, uning rasmi va alohida harfi birgalikda ko‘rsatiladi. Masalan, “olma” so‘zi, uning rasmi va “O” harfi.

**Natijasi:** Bola so‘z, rasm va harfni bog‘lashni o‘rganadi, xotira mustahkamlanadi.

**Bolalarning reaksiyasi :** Individual ta’lim dasturlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va rivojlanish darajasi inobatga olinadi. Amaliy mashg‘ulotlar o‘yin shaklida tashkil etilganda bolalar faolroq ishtirok etadilar. Dastlab ayrim qiyinchiliklar kuzatilsa-da, muntazam mashqlar natijasida quyidagi o‘zgarishlar kuzatiladi: o‘qish tezligi oshadi; yozuvdagi xatolar kamayadi; diqqat va xotira kuchayadi; o‘quvchining o‘ziga ishonchi ortadi.

**Tavsiyalar:** Mashg‘ulotlarni qisqa, ammo muntazam o‘tkazish (10–15 daqiqa). O‘yin elementlari va rangli ko‘rgazmali vositalardan foydalanish. Bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish. Ota-onalarni mashqlarga jalb qilish va uy sharoitida davom ettirishni ta’minlash.

### **Ota-onalar va mutaxassislar hamkorligi**

Disleksiya va disgrafiya bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashda ota-onalar va mutaxassislarning hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar bolaga psixologik yordam ko‘rsatishi, uy sharoitida mashqlarni muntazam bajarishiga ko‘maklashishi lozim. Logoped, psixolog va defektolog esa professional yondashuv asosida bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatib boradi.

### **Xulosa**

Disleksiya va disgrafiya kabi o‘quv faoliyatidagi buzilishlar bolalarning ta’lim jarayonida jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Ammo ularni erta aniqlash, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, metodik yondashuvlarni qo‘llash, orqali bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish mumkin. Logopedik mashg‘ulotlar, o‘quv materiallarini moslashtirish didaktik va qiziqarli

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

o'yinlar, mutaxassislar va ota-onalik hamkorligi orqali bunday bolalarning bilim olish jarayonida muvaffaqiyat qozonishlariga erishish mumkin. Individual yondashuv ularning nafaqat o'quv, balki psixologik va ijtimoiy rivojlanishida ham katta rol o'ynaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ахмедова М., Ибрагимова С. *Логопедия*. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018.
2. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. *Инклузив таълим дастури*. – Тошкент, 2020.
3. Садоқова Ш. *Нутқ бузилишилари ва уларни бартараф этиши методикаси*. – Тошкент: Фан, 2019.